

PEDAGOGIKA UCHUN 45 DAQIQANING AHAMIYATI

R. Sherbutayeva¹

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy maqolada pedagogik jihatlar va dars jarayoniga kiritilishi kutilayotgan yangi tizim, hamda pedagog o'qituvchilarning asosiy vazifalari va yuqori sinf o'quvchilari uchun oliy ta'limga boshlang'ich tayyorlov yoritilgan.

Kalit so'zlar: darslik vaqti sestemasi, xramatik ranglar, pedagog va pedagogika samarali natija kutilayotgan darslik sestemasi.

doi: <https://doi.org/10.2024/09r3b272>

Yuqori sinf bolalari shaxs bo'lib, jamoa bo'lib shakllanadi. Ayni o'sha paytda ularning o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Shavkat Mirziyoyev

Kirish

Inson hayotida ilm olishni avvalo oiladan so'ngra bog'cha hamda maktab dargohlaridan boshlaydi. Yutboshimizning ta'lim ta'lim to'g'risidagi so'zlari bejiz emas. Ilm o'rganish va dunyoviy bilimlar sohibi bo'lib yetishish davri shubxasiz malakali pedagoglar bilan bog'liq. Ushbu maqolam mazmunida, 45 daqiqadan iborat dars jarayonining o'quvchi hayotidagi muhim o'rnini va uning ta'sirini yoritmoqchiman. Har bir pedagog uchun dars jarayonidagi muhim jihatlarni aytib o'tadigan bo'lsak, avvalo kuchli psixologiya, dars jarayonidagi har qanday vaziatni nazorat qila olish uchun yetarli malaka, hamda ta'lim berayotgan sohasi va fani bo'yicha yetarli bilim, shuningdek o'rgatayotgan darsligini atroflicha tushintira olishi uchun ko'rgazmali qurollar talab etiladi. Pedagogning o'quvchilar bilan o'zaro muloqotiga to'xtaladigan bo'lsak, o'qituvchining nutqi va so'z boyligi dars jarayonida hamda o'quvchilarni darsga jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi, ayniqsa xorijiy tillar: ingliz, rus, nemis, xitoy va hokazolarda.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tishimiz joizki, o'qituvchining o'z prezentatsiyasida hamda dars jarayonini yanada sifatli va qiziqarli bo'lib otishi uchun tayyorlagan ko'rgazmali qurollarida xramatik ya'ni yorqin yorqin ranglardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda o'qituvchida yuqorida aytib o'tilgan malak, bilim va shu kabi jihatlar bo'lsa-yu, ammo o'quvchiga o'gatish va darsga jalb qilish va o'quvchi qiziqishini orttirish mahorati bo'lmasa, afsuski bu layoqatsizlik va vaqtni behuda sarflash bo'ladi xolos.[1]

Pedagog so'zining asl ma'no va mazmuni haqida batafsil tushincha. Pedagogika so'zi qadimiy atama bo'lib (geakcha –paid – bola ,gogos – yetakchi) "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-trbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan

¹ Sherbutayeva Rayhona, Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

shug'ullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondoshiladi.

Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shuningdek pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha bo'lim va sohalar mavjud. Masalan o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoillari, usullari bilan shug'ullanishdir. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasidir.

Muhokama va natijalar

Ma'lumki, dars jarayoni 45 daqiqadan iborat bo'lib, ushbu vaqt mobayni ayrim bo'limlarni o'z ichiga oladi: dars boshlanishi, dars jarayoni, ya'ni o'tilgan mavzu uchun berilgan vazifalarni so'rash va baholash, hamda joriy mavzuni tushintirish va yana uyga vazifa va mustaqil bajarish uchun vazifalar berishdir. Shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan bo'limlarni pedagog o'qituvchi bir dars mobaynida, ya'ni 45 daqiqani ichida amalga oshirishi lozim. Ammo ushbu bo'limlar o'quvchi bilan ko'proq ishlashga yetarli deb hisoblay olmayman.

Ehtimol, 45 daqiqalik dars sestimasi uzoq yillardan buyon o'rta ta'lim maktablarining an'anasidir, lekin kun sayin rivojlanayotgan zamon talabi va texnologiya inqilobini o'rganish uchun ushbu odatiy vaqt birligini uzaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi, ya'ni, 45 daqiqani 55 daqiqaga uzaytirish. Biroq psixologlar nazariyasiga yondoshgan holda bu 55 daqiqalik dars jarayoni boshlang'ich yoki o'rta sinf o'quvchilari uchun emas aksincha yuqori, ya'ni 9,10 va 11- sinf o'quvchilarining odatiy darsligini o'zlashtirish uchun belgilangan vaqt sifatida e'tirof etilsa samarali darslik sestimasi yuzaga kelar edi. Aynan yuqori sinf darslik vaqtini uzaytirishimizdan maqsad shuki, boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchi bolalari har 35 yoki 40 daqiqadan so'ng ular shug'ullanayotgan mashg'ulotni tuxtatgan holda tanaffus qilishlari va oz bo'lsada miya faoliyatiga dam berishlari olim va mutaxassis psixologlar tomonidan e'tirof etilgan.

Shuningdek, 55 daqiqalik dars jarayon sestemasi uchun nega aynan yuqori sinflarni tanlaganimizning asosiy sababi, oliy ta'lim sestemasiga tayyorlash, chunki kollej, insitut, universitet va shular kabi oliy ta'lim dargohlaridagi darslar jarayoni 80 yoki 90 daqiqadan iborat hamda ular shunday dars sestimasida ta'lim olishadi. Keling biz ta'lim tizimiga kiritmoqchi bo'lgan 55 daqiqalik dars jarayoni yuqori sinf o'quvchilari uchun boshlang'ich tayyorgarlik, shuningdek ular tanlagan sohasini mukammal va atroflicha o'rganishlari uchun ushbu uzaytirilgan vaqt qisman yetarli bo'ladi deb hisoblayman. Shu bilan birga yuqorida ta'rif etilgan dars jarayonida olib boriladigan, bo'limlardan tashqari, dunyoqarsh, e'tiqod, ezigulik, adolat, o'quvchining yetuk shaxsga aylanishi kabi nazariy va amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi.

Hozrgi davr Yangi O'zbekiston davri hisoblandi va biz yoshlar, butun o'zbek millati yurtimiz ravnaqi uchun Yurtboshimiz ishonchini oqlash uchun harakatni o'zimizning ilm dargohlarimizdan boshlashimiz zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Yurtimizni olamga tanitish, o'zimizning yetuk loyihalsrimiz bilan mamlakattimizga a'lo natijalar keltirish va yurt bayrog'ini ko'klarga ko'tarish biz yoshlarning qo'lida. Ushbu tarqqiyotlar millat farzandiga ta'lim tarbiya beruvchi pedagog, o'qituvchilarimizning mehnatlari asosidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Aufschnaiter, C. v. (2003). *Prozessbasierte Detailanalysen der Bildungsqualität von Physikunterricht: Eine explorative Studie [process-based detailed analyses of quality of physics instruction]*. *Zeitschrift für Didaktik der Naturwissenschaften*, 9, 105-124.

[2]. Borowski, A., Fischer, H.E., Trendel, G., & Wackermann. (2010). *Guter Fachunterricht braucht seine Zeit [Good science instruction needs time]*. *Pädagogik*, 62 (3), 26-29.

[3]. Clausen, M. (2002). *Unterrichtsqualität: Eine Frage der Perspektive? [Instructional quality: A matter of perspective?]* Münster: Waxmann.

[4]. Fölling-Albers, M. (2008). *Alte und neue Rhythmen schulischer Zeit [Old and new rhythms of learn time]*. In H. Zeiher, S. Schroeder (Hrsg.), *Schulzeiten, Lernzeiten, Lebenszeiten*. Weinheim: Juventa, 133-141.